ISSN 2181-2357

XALQARO NAZARIY VA AMALIY TADQIQOTLAR JURNALI

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH

JURNAL FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HAMKORLIGIDA NASHR ETILADI



VOLUME 2,
Ussue 1
2022

ISSN 2181-2357

«Al-Ferganus» MChJ Nashriyot markazi.
A. M. Abdullayev
2-tom, 1-son.
«Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali»
Ilmiy jurnal.
Yanvar 2022 y.
2021 yil noyabrdan beri nashr etilmoqda.
Oyiga bir marta nashr etiladi.
16+

***Tahririyat kengashi raisi Salomov O'ktam Raximovich*, Rector of FerPI**

Bosh muharrir K. I. Kurpayanidi

Tahririyat hay'ati: A.M.Abdullaev, M.S.Ashurov, E.A.Mo'minova, K.X.Abduraxmonov, A.N.Asaul, A.V.Burkov, U.V.G'ofurov, M.A.Ikromov, D.Kudbiev, E.S.Margianiti, B.Obrenovich, L.NA Sultonov, L.NA. , A.Xasanov, Sh.T.Karimov, Sh.Sh.Salixanova, U.K.Alimov, S.M.Turabdjanov, B.A.Alimatov, R.J.Tozhiyev, A.A.Risqulov, B.M.Tursunov, A.A.Shermukhamedovsh,Y.S.A. H.A.Akramov, M.X.Hakimov, Sh.M.Iskandarova, Z.M.Sobirova, A.M.Muxtorova, L.M.Babaxo'jaeva..

Tahririyat manzili: 150107
Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86 - uy
Тел. +998971003888
https://alferganus.uz/en/site/index
E-mail: alferganus.ltd@gmail.com

IF(Impact Factor) **8.7 / 2021**

TOGETHER WE REACH THE GOAL
SJIF 2021: 5,5

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida ro'yxatga olingan.
Ro'yxatga olish № 4446-5760-5988-7507-e628-4252-5710 2021 yil 23 mart.

Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali Crossref, OpenAIRE, Google Scholar bazalariga kiritilgan.

Impact-faktor 2021 Evaluation Pending

CC litsenziyasi turi: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

Jurnal jahon va mintaqaviy darajada fan va amaliyotning rivojlanish masalalariga bag'ishlangan.
Jurnal olimlar, o'qituvchilar, doktorantlar, talabalar uchun mo'ljallangan.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali.
2022. T. 2. №1. https://alferganus.uz

ISSN 2181-2357

© «Al-Ferganus» nashriyot markazi,
2022 Farg'ona, O'zbekiston

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

ISSN 2181-2357

Publishing Center «Al-Ferganus» LLC.
A. M. Abdullaev
"International journal of theoretical and practical research"
Scientific Journal.
Published since November 2021.
Schedule: monthly. 16+

Volume 2, Issue 1

January, 2022.

Chairman of the Editorial Board **Salomov Uktam Rakhimovich,** ***FarPI rektori***

Editor-in-chief **K. I. Kurpayanidi**

Editorial Board: A. M. Abdullaev, M. S. Ashurov, E. A. Muminova, K. Kh. Abdurakhmanov, A. N. Asaul, A. V. Burkov, U. V. Gafurov, M. A. Ikramov, D. Kudbiev, E. S. Margianiti, B. Obrenovich, L. Ivars, K. E. Onarkulov, N. A. Sultanov, A. Khasanov, Sh. T. Karimov, Sh. Sh. Khamdamova, D. S. Salikhanova, U.K. Alimov, S.M. Turabdzhanov, B.A.Alimatov, R.Zh. Tozhiev, A.A. Riskulov, B.M. Tursunov, A.A. Shermukhamedov, S. F. Ergashev, Y.S. Abbasov, Kh.A. Akramov, M.Kh. Khakimov, Sh.M. Iskandarova, Z.M. Sobirova, A.M. Mukhtarova, L.M. Babakhodzhaeva.

Address of the editorial office:
150107
Fergana city, Fergana str., 86.
Phone +998971003888
https://alferganus.uz/en/site/index
E-mail:
alferganus.ltd@gmail.com

Academic Resource Index ResearchBib
IF(Impact Factor) **8.7 / 2021**

Scientific Journal Impact Factor
TOGETHER WE REACH THE GOAL
SJIF 2021: 5,5

Registered with the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.
Registration No. 4446-5760-5988-7507-e628-4252-5710 dated March 23, 2021.

The journal "International Journal of Theoretical and Practical Research" is included Crossref, OpenAIRE, Google Scholar.

Impact-factor 2021 Evaluation Pending

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

The Journal addresses issues of global and regional Science and Practice. For scientists, teachers, doctoral students, students.

(2022). International journal of theoretical and practical research, 1(3).
https://alferganus.uz

ISSN 2181-2357

© Publishing Center«Al-Ferganus»,
2022, Fergana, Uzbekistan

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

ISSN 2181-2357

Издательский центр «Al-Ferganus» ООО.
А. М. Абдуллаев — Том 2, Номер 1.
«Международный журнал теоретических и практических исследований»
Научный журнал. — Январь 2022г.
Издается с ноября 2021г.
Выходит один раз в месяц.
16+

Председатель редакционного совета **Саломов Уктам Рахимович, *ректор ФерПИ***

Главный редактор **К. И. Курпаяниди**

Редакционная коллегия: А.М.Абдуллаев, М.С.Ашуров, Э.А.Муминова, К.Х.Абдурахманов, А.Н.Асаул, А.В.Бурков, У.В.Гафуров, М.А.Икрамов, Д.Кудбиев, Э.С.Маргианити, Б.Обренович, Л.Иварс, К.Э.Онаркулов, Н.А.Султанов, А.Хасанов, Ш.Т.Каримов, Ш.Ш.Хамдамова, Д.С.Салиханова, У.К.Алимов, С.М.Турабджанов, Б.А.Алиматов, Р.Ж.Тожиев, А.А.Рискулов, Б.М.Турсунов, А.А.Шермухамедов, С.Ф.Эргашев, Ё.С.Аббасов, Х.А.Акрамов, М.Х.Хакимов, Ш.М.Искандарова, З.М.Собирова, А.М.Мухтарова, Л.М.Бабаходжаева.

Адрес редакции: 150107
г. Фергана, ул. Ферганская, 86
Тел. +998971003888
https://alferganus.uz/en/site/index
E-mail: alferganus.ltd@gmail.com

Academic Resource Index ResearchBib
IF(Impact Factor) **8.7 / 2021**

Scientific Journal Impact Factor
TOGETHER WE REACH THE GOAL

SJIF 2021: 5,5

Зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан.
Регистрации № 4446-5760-5988-7507-e628-4252-5710 от 23 марта 2021 года.

Журнал «Международный журнал теоретических и практических исследований» включен в Crossref, OpenAIRE, Google Scholar.

Импакт-факторы журнала: 2021 Evaluation Pending

Тип лицензии CC поддерживаемый журналом: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0).

В журнале рассматриваются вопросы развития мировой и региональной науки и практики. Для ученых, преподавателей, докторантов, студентов.

Международный журнал теоретических и практических исследований. 2022. Т. 2. №1.
https://alferganus.uz

ISSN 2181-2357
9 772181 235007 >

©Издательский центр «Al-Ferganus»,
2022, Фергана, Узбекистан

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

TABLE OF CONTENTS

Iqtisodiy fanlar / Economic Sciences/ Экономические науки

1. **Ahunova Marifat Khakimovna** **7**
Women's entrepreneurship in an innovative economy: problems and solutions
2. **Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich** **15**
State and priority areas of development of innovative activities in Uzbekistan in modern conditions
3. **Ilyosov Asrorjon Akhrorjon ugli** **31**
Export of industrial products: regional analysis, factors and export trends (on the example of the Fergana region)
4. **Kambarov Zhamoliddin Hikmatillaevich** **41**
Yormatov Ilmidin Toshmatovich
Using the capabilities of automated and monitoring systems to improve the quality of higher education
5. **Khodjaeva Nodira** **51**
Jumanova Aijan
Management and its components in tourism industry of Uzbekistan
6. **Kudbiev Davlatbay** **57**
Methodological foundations of the lease of fixed assets and their accounting
7. **Kudbieva Gulzodahon** **63**
The necessity and essence of environmental requirements in the organization of the road transport system
8. **Muminova Elnorakhon Abdukarimovna** **70**
Solijonov Shoxruh
Feasible future of applying block chain technology to digitalized national economy
9. **Nosirov Ilkhom Abbosovich** **77**
Management accounting reforms in modern clusters
10. **Tursunova Dilrabo** **89**
Modern debatable issues of accounting for depreciation and amortization of fixed assets
11. **Usmanova Dilfuzakhon Ibrokhimovna** **97**
The use of artificial intelligence in the management of physical culture and sports
12. **Usmanova Zulfiya Musaevna** **108**
On topical issues of using the kaizen technology in improving the personnel management mechanism in the light industry
13. **Shadieva Gulnora** **117**
Rustamova Zarina
The role of family entrepreneurship in improving the well-being of the family in the context of economic modernization

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

Filologiya fanlari / Philological sciences/ Филологические науки

14. **Burkhanova Mashkhura** **124**
Olfactor cognitive metafora

15. **Khakimov Muhammad Khuzhakhonovich** **133**
Some reviews about the paralinguistic mode

Texnik fanlar / Technical sciences / Технические науки

16. **Akramov Khusnitdin Akhrarovich** **141**
Davlyatov Shohrukh Muratovich
Investigation of the stress-strain state of steel shells

Kimyoviy fanlar / Chemical Sciences / Химические науки

17. **Marufjonov Akbarjon Bohodirjon Ugli** **148**
Khamdamova Shohida Sherzodovna
Modern analysis of production technology and application of fungicides and seed dressings

Physical and mathematical sciences / Fizika-matematika fanlari / Физико - математические науки

18. **Hasanov Anvar** **159**
Kozimova Odina
Solutions to a system of hypergeometric type differential equations in partial derivatives of the third order and its integral representations

19. **Makhmudova Nasibaxon Abdujabbarovna** **180**
Some methods of improving the mathematical competence of students in the lessons of "Higher mathematics"

20. **Mirzamakhmudova Nilufar Tadjibayevna** **186**
Some methodological features of teaching the subject «Higher mathematics» in higher educational institutions

21. **Sultanov Nomanzhan Akramovich** **193**
Photoluminescence (pl) spectra of hardened and by the transition silicon

E'lon / Reklama / Advertisement

Advertisement **204**
Our publications **208**

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH
ISSN 2181-2357
T. 2. №1. 2022
SJIF 2021:5.5

International journal of theoretical and practical research
Scientific Journal
QR-Article

Year: 2022 Issue: 1 Volume: 2
Published: 31.01.2022
http://alferganus.uz

Citation:
Ashurov, M.S. (2022). State and priority areas of development of innovative activities in Uzbekistan in modern conditions. SJ *International journal of theoretical and practical research, 2 (1), 15-30.*

Ashurov, M.S. (2022). Zamonaviy sharoitda O'zbekistonda innovatsion faoliyatning holati va va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (1), 15-30.*

Doi: https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6089821

Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich
Farg'ona politexnika instituti
"Menejment" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

UDC 332.142

ZAMONAVIY SHAROITDA O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYaTNING HOLATI VA VA UNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasi innovatsiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlariga bag'ishlangan.*
Maqolada, mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy drayverlari bo'lgan inson omili, demografiya va mehnat bozorida yuzaga keladigan o'zgarishlar, innovatsiya tizimini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir qiluvchi sabab va omillar, muammo va yechimlar o'rganilgan, taxlil qilingan hamda bayon etilgan.
Mualliflar tomonidan o'tkazilgan tahlil natijalaridan, statistik raqamlar innovatsion faoliyat tizimidagi mavjud tendentsiyalar saqlab turilgani, o'sish kuzatilayotganidan ma'lumot berayotganligi, biroq, amalda bu faoliyatda juda zaif o'sish kuzatilganligi aniqlangan. Ushbu natijalardan kelib chiqib, mamlakatda innovatsion faoliyatni jadal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur ustuvor yo'nalishlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, innovatsiya iqtisodiyoti, innovatsion model, milliy innovatsiya tizimi, innovatsiya faoliyati, texnologik taraqqiyot, samarali boshqaruv.*

СОСТОЯНИЕ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Ашуров Махаммаджон Сотволдиевич
Ферганский политехнический институт
доцент кафедры "Менеджмент", к.э.н.,

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

Аннотация: *Статья посвящена становлению и развитию инновационной системы Республики Узбекистан. В статье исследуются, анализируются и описываются человеческий фактор, демография и изменения на рынке труда, причины и факторы, влияющие на формирование и развитие инновационной системы, проблемы и решения, которые являются основными драйверами инноваций в стране. По результатам проведенного автором анализа установлено, что статистика показывает, что существующие тенденции в системе инновационной деятельности сохраняются, наблюдается рост, но на практике наблюдается очень слабый рост этой активности. На основе этих результатов предложены необходимые приоритеты для быстрого роста и развития инновационной деятельности в стране.*

Ключевые слова: *инновации, инновационная экономика, инновационная модель, национальная инновационная система, инновационная деятельность, технический прогресс, эффективное управление*

STATE AND PRIORITY AREAS OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN UZBEKISTAN IN MODERN CONDITIONS

Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich
Ferghana Polytechnic Institute Associate Professor of the Department of Management, PhD,

Abstract: *The article is devoted to the formation and development of the innovation system of the Republic of Uzbekistan. The article examines, analyzes and describes the human factor, demography and changes in the labor market, the reasons and factors affecting the formation and development of the innovation system, problems and solutions that are the main drivers of innovation in the country. According to the results of the analysis carried out by the authors, it has been established that statistics show that the existing trends in the system of innovative activity persist, there is an increase, but in practice there is a very weak growth of this activity. Based on these results, the necessary priorities are proposed for the rapid growth and development of innovative activities in the country.*

Keywords: *innovation, innovative economy, innovative model, national innovative system, innovative activity, technological progress, effective management.*

Kirish

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida sanoat korxonalari uchun innovatsiyaviy va texnologik taraqqiyotga erishish o'ta muhimdir, chunki faqat shu yo'l orqali sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish, zamonaviy texnologik bazani yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, samaradorlik va mehnat unumdorligin oshirish, shuningdek ularning xalqaro hamda mahalliy raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Shuning uchun O'zbekiston sanoat korxonalarini boshqarishning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, innovatsion faoliyatni kerakli sifat va miqdor darajasiga erishtirishdan iboratdir.

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

Zamonaviy haqiqatda mamlakatda innovatsion faoliyatni jonlantirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiyotni sog’lomlashtirish va kelgusi rivojlanishi uchun sharoit yaratish, biznes rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish, shu bilan birga yetakchilikni mustahkamlash va raqobatchilardan o’zib ketish, shuningdek, biznesning butun yo‘nalishlarini iqtisodiy jihatdan amaliy bo‘lmagan radikal innovatsiyalar joriy etilgan taqdirda sohaga zarar yetkazilishidan o‘z vaqtida himoya qilish uchun ham kerakdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiyot nazariyasiga "innovatsiya" atamasi XX asr boshlarida avstriyalik Iosif Shumpeter tomonidan kiritilgan. 1970-yillarning boshlarida mikroelektronika, kompyuter texnologiyalari va nozik kimyoviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siriga qiziqish keskin kuchaydi, bu ilmiy tadqiqotlar butun tarmoq va milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini ta’minlovchi harakatlantiruvchi kuchga aylanishini yaqqol ko’rsatdi.

Psixologlar, sotsiologlar, huquqshunoslar, menejment va marketing bo’yicha mutaxassislar muhokamaga qo’shilgandan so’ng, ilmiy va texnik natijalarni amaliy faoliyatga joriy etish jarayoni yoki natijasi sifatida innovatsiyaga dastlabki yondashuv (innovatsiyalar nazariyasi klassiklarining qarashlarida) sezilarli darajada o’zgardi. “Innovatsiya” atamasidan foydalanishning gumanitar fanlar va faoliyat sohalarini, masalan, sotsiologiya, tibbiyot, siyosatshunoslikni qamrab olish uchun kengayishi yangi ta’riflar oqimini keltirib chiqardi.

"Innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalari O’zbekistonda 1992 yildan beri iqtisodiy amaliyotda keng qo’llanila boshlandi. Ko’pgina mahalliy qonun hujjatlarida innovatsion faoliyat o’ziga xos ilmiy-texnikaviy faoliyat sifatida taqdim etiladi.

Zamonaviy ilm-fanda "innovatsiya" va “innovatsion faoliyat” tushunchasiga ta’rif berishga bir qancha yondashuvlar mavjud. Ba’zi mualliflar buni innovatsiyalarni yaratish va ishlab chiqarish uchun yagona jarayonda o’zaro bog’langan 28 xil turdagi ishlarning majmuidan iborat bo’lgan maqsadli va ijodiy faoliyat deb ta’riflaydilar, boshqalari ta’kidlashlaricha, innovatsiya - bu foyda olish maqsadida innovatsiyadan foydalanish jarayoni, tijorat maqsadlarida, ya’ni bu tadbirkorlik faoliyati, boshqalar innovatsion faoliyatni yangi bilimlarni olish va uni bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan amalga oshirish bilan bog’liq tijorat faoliyati deb bilishadi.[1]

SHuningdek, ushbu ishda innovatsion faoliyat deganda “mahsulot assortimentini kengaytirish va yangilash va sifatini oshirish, ularni ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish va tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat” tushuniladi deb aytib o’tilgan.[2]

Iqtisodiy tizimlarning yangi sifatini shakllantirish jarayonining markazida bozor talab qiladigan jarayonlar yoki mahsulotlar samaradorligini sifat jihatidan o’sishini

[1] Волынкина, М.В. Правовое регулирование инновационной деятельности: проблемы теории / М.В. Волынкина.- М.: Аспект-Пресс, 2007. – 192 с.

[2] Волынкина, М.В. Правовое регулирование инновационной деятельности: проблемы теории / М.В. Волынкина.- М.: Аспект-Пресс, 2007. – 192 с.

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

ta’minlovchi joriy qilingan yangilik sifatida "innovatsiya" tushunchasi yotadi deb innovatsiya tushunchasiga ta’rif beriladi.[3]

E.I.Alyoxina ta’rificha "innovatsiya - bu korxonaga yangi bozorlarni o’zlashtirish, ilg’or texnologiyalar va tashkiliy va boshqaruv faoliyatining zamonaviy shakllarini joriy etish imkonini beradigan yangi mahsulot, xizmat, texnologiyani yaratish yoki o’zgartirishni o’zida aks ettiradi".[4]

2020 yil 24 iyulida qabul qilingan 630-sonli O’zbekiston Respublikasining Innovatsion faoliyat to’g’risidagi Qonunida “innovatsiyaga fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo’llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma” sifatida ta’rif bersa, “innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o’tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo’yicha faoliyat” deb ta’riflanadi[5].

Rossiya Federatsiyasining 23.08.1996 yildagi 127-FZ-sonli "Fan va davlat ilmiy-texnik siyosati to’g’risida" Federal qonunida “Innovatsion faoliyat - innovatsion loyihalarni amalga oshirishga, shuningdek innovatsion infratuzilmani yaratishga va uning faoliyatini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyat (jumladan, ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyati)” sifatida talqin qilinadi[6]. A.N.Vasilev innovatsion faoliyatni mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar assortimentini kengaytirish va yangilash, sifatini yaxshilash, ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini keyinchalik joriy etish va samarali joriy etish maqsadida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan bozorda foydalanish va tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyat turi sifatida ko’radi.[7]

B. Tviss fikricha ixtiro yoki yangi g’oyaning iqtisodiy mazmunga ega bo’lish jarayoni innovatsion faoliyatdir [8].

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayon, ulardan amaliy foydalanish tufayli sifat xususiyatlari jihatidan maqbul bo’lgan mahsulotlar, texnologiyalar shakllanishiga olib keladi va agar innovatsiya iqtisodiy natija olish uchun yaratilgan bo’lsa (foyda), uning bozorda paydo bo’lishi qo’shimcha daromad keltirishi mumkin deb ta’kidlaydi B. Santo o’z ishida.[9]

F.F. Bezdudniy G.A. Smirnova, O.D. Nechaevalar Inson faoliyatining har qanday sohasida yangi g’oyani amalga oshirish, bozorda mavjud talabni qondirishga hissa qo’shish va iqtisodiy samara berish jarayonini innovatsion jarayon sifatida qaraydilar.[10]

---

[3] Internet resurslar lug'ati www. .dis.ru.

[4] Алёхина Е.И. Инновационная деятельность как элемент стратегического развития предприятия // Эффективное управление экономикой: проблемы и перспективы: сборник трудов IV Всероссийской научно-практической конференции; научн. ред. В. М. Ячменева. Симферополь: ИТ АРИАЛ, 2019. С. 362.

[5] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон

[6] Fan va davlat ilmiy-texnik siyosati to'g'risida" Federal qonuni (oxirgi nashr) // consultant.ru/document/cons_doc_LAW_11507 /(12-qism 21.07.2011 yildagi 254-FZ-son Federal qonuni bilan kiritilgan)

[7] Васильев А.Н. Анализ динамики инновационной активности экономики Российской Федерации за 2003 – 2016 годы // Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева. – 2018. - №1. - т.2. [Электронный ресурс] URL: https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-dinamiki-innovatsionnoy-aktivnostiekonomiki-rossiyskoy-federatsii-za-2003-2016-gody

[8] Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями: сокр. пер. с англ. авт. предисл. и науч. ред. К.Ф. Пузыня. – М.: Экономика, 1989.– 271 с. С. 152

[9] Санто Б. Инновация как средство экономического развития: пер. с венг. общ. ред. и вступ. ст. Б.В. Сазонова. М.: Прогресс, 1990. С 141

[10] Бездудный Ф.Ф., Смирнова Г.А., Нечаева О.Д. Сущность понятия «инновация» и его классификация // Инновации, 1998. № 2-3. С.25

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

G.D.Otnyukova innovatsion faoliyatga agar tashkilot yangilik kiritgan bo'lsa va yangi mahsulot ishlab chiqarishga kirishsa, u o'z ishlab chiqarish faoliyatini, sifat jihatidan yangi, innovatsion darajada davom ettiradi deb urg'u beradi.[11]

Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarida innovatsiyalarni boshqarishning asosini rejalashtirish, motivatsiya va nazorat qilish funktsiyalari tashkil etadi. Boshlanish nuqtasi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, resurslar imkoniyatlarini va bozorda mavjud yoki potentsial talabni muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan rejalashtirish funktsiyasidir. Bu, birinchi navbatda, maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni yaratishni ta'minlaydi[12]. Natijada, innovatsion faoliyatni rejalashtirish innovatsion mahsulotlarni etkazib berish, sotish xavfini va moliyalashtirishning etarli emasligi xavfini minimallashtirishga imkon beradi[13].

Innovatsion faoliyat zamonaviy jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi asosiy omil bo'lib, bu hukumat[14] va mahalliy darajada qayd etiladi.
Innovatsion jarayon fundamental va amaliy tadqiqotlar, konstruktorlik ishlanmalari, marketing, ishlab chiqarish va sotish bosqichlaridan o'tib, g'oyaning mahsulotga izchil o'zgarishini o'z ichiga oladi.[15]

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda innovatsion faoliyat - bu ishlab chiqarish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zini keyingi innovatsion rivojlanish samaradorligini oshirish maqsadidan tizimli ravishda o'zgartirish, ishlab chiqarishning yangi yoki yangilangan usuli va / yoki uni tashkil etish tufayli mahsulotning yangi sifatini olish uchun ilmiy, texnik va intellektual salohiyatdan foydalanish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar tizimidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning instrumental va metodik apparati tizimli yondashuv doirasida tadqiqotning mantiqiy va vaziyatli tahlil, ekspert baholash, anketa, kuzatuv, intervьyu, guruhlash, taqqoslash kabi umum ilmiy usullarni qo'llashga asoslanadi. Ushbu vositalar tadqiqotni turli bosqichlarida turli xil kombinatsiyalarda ishlatilgan, bu yakuniy natijalar, xulosalar va tavsiyalarning ilmiy ishonchliligini ta'minlashga imkon beradi.

Tahlil va natijalar

Innovatsiyalar kompaniyalarning foydasini sezilarli darajada oshiradi, ularga tezroq o'sish va raqobatchilardan ustun turish imkonini beradi.
Innovatsiyalar davlatga foyda keltiradi, chunki turli darajadagi innovatsion faoliyat yalpi ichki mahsulotning o'sishiga bevosita yordam beradi (hosildorlikning o'sishi, uy xo'jaliklarining ixtiyoriy daromadlari va soliq tushumlari natijasida) va alohida tarmoqlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.
Innovatsiyani rivojlanishining xususiy biznesga, jamiyatga, umuman davlatga ta'sirining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

[11] Отнюкова Г.Д. Понятие и признаки инновационной деятельности //Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2015. № 1. С. 45
[12] Друкер П.Ф. Бизнес и инновации. М.: Вильямс, 2007. 432 с.
[13] Дармилова Ж.Д. Инновационный менеджмент: учебное пособие. М.: Дашков и К, 2013.168 с.
[14] Стратегия инновационного развития России до 2020 года. М: Минэкономразвития России, 2010. С. 9.
[15] Internet resurslar lug'ati www. .dis.ru

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

• hayot sifatini yaxshilash;
• YaMM daromadlari va foydalarining o'sishi;
• aholi daromadlarining o'sishi;
• iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish;
• iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish;
• yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari;
• tengsizlikni kamaytirish;
• kichik va o'rta biznesning o'sish sur'atlarini tezlashtirish.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida bu kabi vazifalarni hal etishni innovatsion faoliyatni jonlantirishga yo'naltirilgan sharoitlarni yaratmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Innovatsion iqtisodiyotni qurishda sanoat korxonalari muhim rol o'ynaydi, ular kelgusi iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy natijalarni yaratadi.

Innovatsiyalarni rivojlantirishda asosiy rol fundamental tadqiqotlar olib boradigan, mutaxassislar tayyorlaydigan, ilmiy hamkorlik va almashinuv uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi, yangi kompaniyalarning paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan universitetlarga tegishli. Ilmiy innovatsiyalarda, qoida tariqasida, fundamental tadqiqotlar va ilmiy ta'limini davlat tomonidan moliyalashtiradigan mamlakatlar muvaffaqiyatga erishadi.

Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochildi. 2016 yilda respublikamizdagi oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o'sishga erishilgan.



1- diagramma. Oliy ta'lim tashkilotlari soni

Keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu – umumiy qamrov 28 foizga yetdi. 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirilgan.

Innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi:

O'zbekistonda fan va innovatsiyalar bo'yicha barcha jarayonlarni amalga oshirish va muvofiqlashtirish bilan shug'ullanish uchun O'zbekiston

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PQ3416-sonli qarori bilan innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgan. Vazirlik O'zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organiga aylandi.

Innovatsiyani rivojlantirish bo'yicha so'nggi besh yilda turli tarmoqlardagi innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, o'zining ishlanmalari, o'sish nuqtalarini izlash bilan shug'ullanuvchi 10 ga yaqin davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan quyidagi tashkilotlar tashkil qilindi:

1. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.
2. Xalqaro molekulyar allergologiya markazi.
3. "Yashnobod innovatsion texnoparki" DUK.
4. Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi.
5. Ilg'or texnologiyalar markazi.
6. "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK.
7. Ilmiy-texnik axborot markazi.
8. "Yoshlar innovatsiya markazi" DUK.
9. "Innovatsiya texnologiyalari markazi" MCHJ.
10. "Innovatsiya, texnologiya va strategiya" markazi.

Bugungi kunda innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, ilmiy texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakat ilmiy salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish tizimining asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019 — 2021 yillarda o'zbekiston respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5544-sonli, 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli, 2021 yil 1 aprel kungi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-6198 sonli Farmonlariga, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 noyabrdagi "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3365-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3416 - sonli, 2018 yil 27 aprelda «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-3682-sonli Qarorlari hamda 2020 yil 24 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi O'RQ-630-sonli Qonuniga asoslanadi.

Yuqoridagi qonun, farmon va qarorlar ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik va laboratoriya - eksperimental bazani mustahkamlash, innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, yaqin kelajakda ilmiy infratuzilmalarning moddiy –texnik, laboratoriya va tajriba bazalarini kuchaytirish maqsadida respublikada ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish bo'yicha amalga

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

oshirilayotgan har tomonlama tizimli o’zgarishlar asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.


Biroq, bugungi kunda mamlakatda tarmoqda innovatsiyalarni jadal rivojlantirish uchun qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yangilashga ham e’tibor qaratishi zarur. Shu bilan birga, standartlar predmetlarini mavjud va kelajak texnologiyalarga muvofiqligini muntazam ravishda tahlil qilib borish kerak.

Yuqoridagi taxliliy ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, mamlakatda innovatsion tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha elementlari mavjud, biroq ular bir -biri bilan zaif bog'langan yoki umuman bog'lanmagan. "Uchburchak spirali" - davlat, fan va biznes o'rtasidagi samarali o'zaro ta'sir o'rnatilmagan. Muhim muammolardan biri - davlat mablag'larini taqsimlashning samarali raqobat mexanizmlarini yaratish zarur.

Demografiya va mehnat bozorining o'zgarishi (mehnat omili) ham chaqiriq, ham innovatsiyalarning qo'shimcha drayveri hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib, mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat strategiyasini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Mamlakatda, ham mehnatga layoqatli aholi soni va ham uning ta'lim olganlik darajasi bo’yicha muhim inson kapitali massasi mavjud va buni quyidagi raqamlar ham isbotlab turibdi.



2-diagramma. Aholi soni dinamikasigagi farq

O’zbekistonda umumiy aholi sonidagi 34 558 891 kishidan mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni 58,3 % ni tashkil etadi, ya’ni, 20135100 tasi mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni hisoblanadi.

License type supported CC: Attribution 4.0 International (CC BY 4.0)

1-jadval

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni

(yil oxiriga, jami aholiga nisbatan ulushi, foizda)

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
O‘zbekiston Respublikasi	61,1	61,5	61,7	61,7	61,4	61,0	60,5	60,1	59,5	58,8	58,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	61,3	61,4	61,4	61,4	61,1	60,9	60,8	60,6	60,3	59,8	59,7
viloyatlar:											
